



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASINING
QARORI

**Oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o’rtasida “Ma’rifat maydoni”,
“Yurtim qadriyatlari” ko’rik-tanlovlari hamda “Mening O‘zbekistonim”
videorolik tanlovini o’tkazish bo’yicha nizomlarni tasdiqlash to’g’risida**

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyatini takomillashtirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturining 11-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, talaba-yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularni ma’naviy kamolotga yo’naltirish, iqtidorli yoshlarga o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish, atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ’ib qilish va chuqur o’rganish, yoshlarni yuksak axloq va kuchli bilim sohibi hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni milliy va umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarimiz, an’ana, urf-odat, milliy san’atimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi **qaror qiladi:**

1. **“Ma’rifat maydoni”, “Yurtim qadriyatlari” ko’rik-tanlovlari hamda “Mening O‘zbekistonim” videorolik tanlovi** (keyingi o’rinlarda – Tanlov) 2024/2025 o’quv yilidan boshlab doimiy o’tkazilib borilsin.

2. Quyidagilar:

“Ma’rifat maydoni”, “Yurtim qadriyatlari” ko’rik-tanlovlari hamda “Mening O‘zbekistonim” videorolik tanlovini o’tkazish bo’yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

“Ma’rifat maydoni” ko’rik-tanlovini o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

“Yurtim qadriyatlari” ko’rik-tanlovini o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

“Mening O‘zbekistonim” videorolik tanlovini o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;

“Ma’rifat maydoni”, “Yurtim qadriyatlari” ko‘rik-tanlovlari hamda “Mening O‘zbekistonim” videorolik tanlovining chora-tadbirlar rejasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga quyidagi vazifalar yuklansin:

Tanlovlarning barcha bosqichlari o‘tkaziladigan joy va muddatlarini belgilash, shuningdek, nizom talablari asosida yuqori saviyada o‘tkazilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Tanlovning bosqichlarini o‘tkazish jarayonida xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

Tanlovning respublika yakuniy bosqichida faol ishtirok etgan va g‘olib bo‘lgan jamoalarni diplom hamda belgilangan pul mukofotlari bilan taqdirlash;

Tanlovda g‘olib bo‘lgan jamoalar yuzasidan ma’lumotlarni 10 kun muddatda Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (R.Xudayberganov) tomonidan Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasiga kiritish.

3. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga:

Tanlovlarning barcha bosqichlarini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy hamda hududiy ishchi guruhlar, shuningdek, Hakamlar hay’ati tarkibiga Markaziy apparat va hududiy bo‘limlardan vakillar ajratish;

Tanlovning yakuniy bosqichida ishtirok etgan jamoalarni kitoblar to‘plami bilan taqdirlashni tashkil etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari S.Buzrukhonov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari B.Ergashev zimmalariga yuklatilsin.

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**



K. Sharipov

Toshkent sh.

2024-yil 9 - 10
38-919 -son

**O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi raisi**



S. Sayyid

Toshkent sh.

2024-yil 9 - 10
01-03/854 -son

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining
2024-yil "9" - oktabrdagi 38-219 -son qaroriga
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining
2024-yil "9" - oktabrdagi -son qaroriga
4-ilova 29-03/857

"Mening O'zbekistonim" videorolik tanlovi NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi barcha talaba-yoshlar o'rtasida "Mening O'zbekistonim" videorolik tanlovini (bundan keyingi o'rinlarda Tanlov – deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish kabi muhim vazifamizni hayotga tadbqiq etish maqsadida 2024-yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi, shuningdek, talaba-yoshlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

3. "Mening O'zbekistonim" videoroliklar tanlovida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning asosiy maqsadi – talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O'zbekistonimizning qadimiy va boy tarixi, madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini o'rganish, yoshlarimizni mardlik, jasorat va matonat ruhida tarbiyalash, ularni o'z iqtidorlarni namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Tanlovning vazifasi – iqtidorli talabalarning ijodiy ishlari, aktiyorlik, montajyorlik, rejissiyorlik va ijodkorlik mahoratlarini qo'llab quvvatlash;

yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash;

talabalarning "Mening O'zbekistonim" mavzusida videoroliklar tanlovida saralab olingan ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

5. Tanlov (tashkilotchisi) Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan tashkil etiladi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim muassasalarining 1-10 nafargacha talaba-yoshlaridan tashkil topgan jamoalari (ushbu tanlovda yakka tartibda ham ishtirok etishi mumkin) ishtirok etadi.

6. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish, Respublika tashkiliy ishchi guruhi hamda oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari zimmasiga yuklatiladi.

7. Tanlov 2 bosqichda tashkil etiladi.

1-bosqich oliy ta'lim muassasasining o'zida fakultetlararo saralash bosqichi va 2-respublika final bosqichi. Tanlovning barcha bosqichlarini o'tkazish muddatlari Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan sanasi aniq belgilanadi va oliy ta'lim muassasalariga vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi.

8. Tanlovning 1-bosqichida oliy ta'lim muassasasidan tuzilgan Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra faqat 1 ta jamoa yoki yakka ishtirokchining ijodiy ishlari tanlovning birinchi bosqichi o'tkazilgan kundan boshlab 3 kun davomida respublika bosqichiga yuboriladi. 3 kundan kechikkan ishlar qabul qilinmaydi.

9. 2-Respublika final bosqichida Hakamlar hay'ati tarkibi tuziladi, oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan ishlar 10 kun davomida ko'rib chiqiladi va g'oliblar aniqlanadi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

10. Tanlangan mavzu ishtirokchilarning tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasi joylashgan hududining tarixi va bugungi kuni, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar v.h haqida bo'lishi kerak.

- taqdim etiladigan videoroliklar soni 1 ta, davomiyligi 3-4 daqiqagacha MPEG-4 formatda

- videorolik tasvirida 60-70 foizgacha jamoa (yoki yakka tartibda) a'zolarining aks (ko'rinishi) etishi shart.

- g'oyaning dolzarbligi, videorolik tanlov talablariga javob berishi hamda unda aks ettirilgan voqea-hodisaning mazmun-mohiyati, ahamiyati to'liq ochib berilishi kerak;

- mavzuga mosligi, videorolik tanlov mavzusiga hamda tanlov oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalariga mos kelishi kerak;

- ijodiy ish baholanishi jarayonida musiqali fon, videoeffektlardan foydalanilganligi, tomoshabinda tuyg'u va tasavvur uyg'ota olishi, kreativlik, ishning uslubiy jihatdan o'ziga xosligi, badiiy va texnik darajasi, jamoa a'zolarining aktyorlik mahoratlari, nutqi va suhandonliklari, efirga uzatish imkoniyati ham inobatga olinadi;

- ijodiy ishlarning umumiy barcha imkoniyatlari birlikda inobatga olinib Hakamlar hay'ati tomonidan 1 ball dan 10 ballgacha tartibda baholanadi.

- Har bir Hakamlar hay'ati a'zolari qo'ygan ballari yig'indisi a'zolar soni nechta bo'lsa shunga bo'linadi va jami ball chiqarib qo'yiladi.

11. Videorolikni suratga olish va montaj jarayonida maxsus dastur va uskunalaridan foydalanish ishtirokchi (ijodiy ish muallifi)ning ixtiyoriga havola etiladi.

12. Videorolikda yoritilayotgan mavzu nomi ko'rsatilishi mumkin. Ishtirokchilarning, ta'lim muassasasi nomi, o'qish kursi ko'rsatilishi taqiqlanadi. Ushbu holat kuzatilgan taqdirda Hakamlar hay'ati tomonidan ishlari baholanmaydi.

V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi

13. Oliy ta'lim muassasalarida g'olib bo'lgan 1-o'rinni egallagan talabalarning hujjatlari (bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari – videoroligi Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etiladi. Ijodiy ishlar elektron arxivlangan (arxiv nomi ta'lim muassasa nomi bilan, yoki fleshka)

taqdim etiladi. Taqdim etiladigan ijodiy ishlar yuboriladigan manzili vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi. Belgilangan talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.

VI. Mualliflik huquqlari

14. Tanlovda ishtirok etayotgan videoroliklarda mualliflik huquqlari buzilganda, buning uchun ishni tanlovga taqdim etgan oliy ta'lim muassasasi, ishtirokchi yoki ishtirokchi jamoa javobgar hisoblanadi.

15. Videorolikda ishtirokchilarning ijodiy ishlari boshqa mualliflik video, reklama roliklari, kinematografik asarlaridan nusxa olishga yo'l qo'yilmaydi.

16. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan videorolikning muallifi ekanligini, ularning ijodiy ishida boshqa shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqini buzilmaganligini kafolatlaydi. Mazkur talab buzilgan taqdirda, oliy ta'lim muassasasi, ishtirokchi yoki ishtirokchi jamoa tashkilotchilarga barcha zarar hamda tashkilotchilarning o'z huquqlarini himoya qilishi uchun ketgan xarajatlarini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

17. Tashkilotchilar tanlovga taqdim etilgan ishlardan tanlovni yoritish, to'plam yaratish va tarqatish maqsadida foydalanishlari mumkin.

18. Videorolikni tanlovga taqdim etish orqali ishtirokchi ushbu nizomning barcha bandlariga o'z roziligini bildiradi.

VII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

19. Tanlovning birinchi bosqichida yuqori 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan har bir ishtirokchi yoki jamoa a'zolari oliy ta'lim muassasasining faxriy yorliqlari hamda budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 0.5 barobari miqdorida bir martalik pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi.

20. **"Mening O'zbekistonim"** videorolik tanlovining final bosqichida 1-, 2-, 3-, 4- va 5-o'rinni egallagan ishtirokchi yoki jamoalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

1-o'rin – 15 million so'm,

2-o'rin – 12 million so'm,

3-o'rin – 10 million so'm,

4-o'rin – 8 million so'm,

5-o'rin – 5 million so'm pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Tanlovni final bosqichini yuqori safiyada tashkil etgan tashkilotchi (Respublika tashkiliy ishchi guruh) mas'ul xodimlari asosiy ish joylaridan mehnatga haq to'lashning 10 barobari miqdorida rag'batlantirilishi mumkin.

VII. Yakuniy qoidalar

21. Nizom talablariga mos kelmagan ijodiy ishlar taqdim etilgan taqdirda Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan natijalari bekor qilinishi mumkin.

22. Davlat va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

23. Videoroliklarda mualliflik huquqlari buzilganda, buning uchun ishni tanlovga taqdim etgan ishtirokchi jamoa javobgar hisoblanadi.

24. Videorolikda ishtirokchilarning ijodiy ishlari boshqa mualliflik video, reklama roliklari, kinematografik asarlaridan nusxa olishga yo'l qo'yilmaydi.

25. Tanlovga Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin